



BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABIDA DUTOR CHOLG'USINI O'RGATISH TEXNIKALARI

Bebetova Marjona Bahriddin qizi

Guliston davlat universiteti,

San'atshunoslik fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur ishda musiqa maktablarida dutor cholg'usini o'rgatish metodikasi, o'quvchilarga to'g'ri o'tirish va cholg'uni ushlab qoidalari, mashg'ulot jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish masalalari yoritilgan. Dutor chalishda gavda holati, qo'l va yelka erkinligi, cholg'uni to'g'ri tutish texnikasi hamda sahnaga chiqish va ijro madaniyati haqida batafsil tushuncha berilgan. Shuningdek, boshlang'ich bosqichda oddiy mashqlar, gammalar va etyudlar orqali o'quvchilarning texnik ko'nikmalarini shakllantirish, ritm va eshitish qobiliyatini rivojlantirish muhimligi ta'kidlangan. Dars jarayonida og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, o'yin va taqqoslash metodlaridan foydalanish samaradorligi asoslab berilgan. Ishda "Musika o'qitish metodikasi va maktab repertuari" fanining vazifalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, metodik ishlanmalar tayyorlash hamda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish masalalari ham yoritilgan. Mazkur material musiqa maktablari o'qituvchilari va o'quvchilari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Annotation: This work explores the methodology of teaching the dutar instrument in music schools, highlighting proper sitting posture and correct techniques for holding the instrument, as well as the step-by-step organization of the lesson process. Detailed explanations are provided on body posture while playing the dutar, freedom of the hands and shoulders, correct instrument positioning techniques, and stage performance and artistic presentation skills. Additionally, the importance of developing students' technical skills at the initial stage through simple exercises, scales, and études is emphasized, along with fostering rhythmic accuracy and auditory perception. The effectiveness of using oral, visual, practical, game-



based, and comparative teaching methods during lessons is also substantiated. The paper further discusses the objectives of the subject "Methodology of Music Teaching and School Repertoire," the application of modern pedagogical technologies, the preparation of methodological materials, and the organization of the educational process with consideration of students' age characteristics. This material has practical significance for music school teachers and students.

Аннотация: В данной работе освещаются вопросы методики обучения игре на дутаре в музыкальных школах, правила правильной посадки и удержания инструмента, а также поэтапная организация учебного процесса. Подробно раскрываются требования к положению корпуса при игре на дутаре, свободе рук и плеч, технике правильного удержания инструмента, а также культуре сценического выступления и исполнительского мастерства. Кроме того, подчёркивается важность формирования технических навыков учащихся на начальном этапе посредством простых упражнений, гамм и этюдов, а также развития чувства ритма и музыкального слуха. Обосновывается эффективность использования на уроках словесных, наглядных, практических, игровых и сравнительных методов обучения. В работе также рассматриваются задачи учебной дисциплины «Методика преподавания музыки и школьный репертуар», применение современных педагогических технологий, подготовка методических разработок и организация образовательного процесса с учётом возрастных особенностей учащихся. Данный материал имеет практическую значимость для преподавателей и учащихся музыкальных школ.

Kalit so 'zlar: Dutor, musiqa ta'limi, ijrochilik mahorati, o'qitish metodikasi, xalq cholg'ulari, pedagogik texnologiya, sahna madaniyati, gamma va etyud, musiqa maktabi, estetik tarbiya.

Keywords: Dutor, music education, performance mastery, teaching methodology, folk instruments, pedagogical technology, stage culture, scales and etudes, music school, aesthetic education.



Ключевые слова: Дутар, музыкальное образование, исполнительское мастерство, методика обучения, народные инструменты, педагогическая технология, сценическая культура, гаммы и этюды, музыкальная школа, эстетическое воспитание.

Mamlakatimizning poydevorini mustahkamlashda, O‘zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta’lim-tarbiya ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy talab va metodlar asosida umumkasbiy fanlar qatori “Musiqqa o‘qitish metodikasi va maktab repertuari” fanidan ham dastur, o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar yaratilgan. Ijodkorlik va ijrochilik mahoratini egallashda, musiqiy va kasbiy madaniyatini shakllantirishga ko‘mak beradi.

“1997-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 2-chaqiriq 9-sessiyasida “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” respublikamizda yangicha ta’lim tizimini bunyod etib, kelgusida bu sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan istiqbolli vazifalarni belgilab bergan.¹” Musiqqa san’ati inson ma’naviy kamolotida, estetik didini shakllantirishda va milliy qadriyatlarni asrab-avaylashda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, o‘zbek xalq cholg‘ulari orasida dutor alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u asrlar davomida xalqimizning boy madaniy merosini ifodalab kelmoqda. Dutor nafis ohangi, sodda tuzilishi va keng ijro imkoniyatlari bilan yosh avlodni musiqqa san’atiga jalb etishda samarali vosita hisoblanadi. Bugungi kunda musiqqa maktablarida dutor cholg‘usini o‘qitish jarayonini zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish dolzarb masalalardan biridir. O‘quvchilarga cholg‘uni to‘g‘ri ushlab, o‘tirish holatini saqlash, texnik mashqlarni izchil bajarish hamda sahna madaniyatini shakllantirish bo‘yicha puxta metodik yondashuv zarur. Ta’lim jarayonida oddiydan murakkabga tamoyili asosida mashqlar, gammalar va etyudlardan foydalanish o‘quvchilarning ijrochilik mahoratini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, musiqqa ta’limida og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy va interfaol metodlarni qo‘llash

¹ G. SHaripova, G. Najmetdinov, Z. Xodjayeva. Musiqqa o‘qitish metodikasi va maktab repertuari: darslik. A.: 2020, 5-bet



o'quvchilarning qiziqishi va faolligini oshiradi. Har bir o'quvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish esa ta'lim samaradorligini ta'minlaydi. Mazkur maqolada dutor cholg'usini o'rgatishning asosiy metodik jihatlari, darsni tashkil etish usullari va ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritiladi. Musiqa maktablarda dutor cholg'usini o'rgatish texnikalari haqida so'z ochar ekanmiz, avvalo dars o'tish metodikasida to'g'risida tushunchaga ega bo'lishimiz kerak. Yosh o'quvchilarning yoshliklari sababli hayollari tarqoq bo'ladi. Turli xil sharoit va harakterdagi o'quvchilar mavjud. Ularning har biriga alohida dars o'tib, tushuntirish va shu bilan birgalikda qiziqitira olish ham kerak. Agar o'quvchilarga qanchalik ko'p dars o'tmaylik qiziqishi bo'lmasa qabul qilgisi kelmaydi. Bunda turli usullardan foydalanishimiz mumkin. "Og'zaki o'qitish" metodikasi, "Ko'rgazma bilan o'qitish" metodikasi, "Amaliy o'qitish" metodikasi, "O'yin" metodi, "Taqqoslash" metodi va hokazolardan iboratdir. Musiqiy o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan alohida dars o'tish lozim. Metodika tushunchasi haqida to'xtalib o'tamiz. "Metodika so'zi grekcha so'z bo'lib, "tadqiqot yo'li", "bilish usuli" degan ma'noni anglatadi. Musiqa o'qitish metodlari deganda, maktab o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishda qo'llangan ish uslublari tushuniladi. "Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari" kursining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim tizimida shaxs madaniyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish;
- ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga, qo'yilayotgan talablarni o'rganish, dars ishlanmalarini tayyorlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;
- metodik ishlanmalar, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar tayyorlash, kompyuter, slayd, disklar, magnit tasmalardan foydalana bilish;
- har bir sinf o'quvchilarini yoshiga mos ravishda musiqa o'qitish metodlari va usullarini tanlab qo'llash;
- kelajak avlodning musiqiy madaniyati va ma'naviyatini musiqa vositasi orqali shakllantirish



- sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy tarbiya ishlarini tashkil etish uslublarini o‘rganish va shakllantirish;
- pedagogik amaliyotda tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish;
 - taniqli kompozitor, shoirlar, ijodkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish, tanlovlarda ishtirok etib, o‘quvchilarning ma’naviy tarbiyasini shakllantirish;
- xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimini o‘rganish;
 - o‘qituvchi va talaba o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil etish;
- berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarib, amaliy mashg‘ulotlar, seminarlarga puxta tayyorlanish;
- tavsiya etilgan adabiyotlar bilan mustaqil ishlash;
- talabalarni mustaqil fikrlash, izlanish, tahlil qilish, xulosa chiqarishga o‘rgatish; – talabalarni mustaqil ish jarayonida ijodiy faolligini oshirish;
- amaliy mashg‘ulotlar ma’ruzalarning mantiqiy davomi bo‘lib, o‘zlashtirgan bilimlarini mustahkamlaydi.”² Turli o‘yinlar orqali dars o‘tish bolalarda ko‘proq ma’lumot va eslab qolishni shakllantiradi. Og‘zaki tarzda ilk tushunchalarni berib, darsga qiziqtirishimiz mumkin. Bolalar musiqa maktabga kelgan kuni o‘rganishni istagan cholg‘u sozi haqida og‘zaki ma’lumotlar beramiz. Dutor cholg‘usini o‘rgatishni boshlaymiz. Dutor cholg‘usi “Ikki tor” degan ma’noni anglatadi. Chunki dator cholg‘usida ikkita tor mavjud. Dutor cholg‘usi asosan kvarta, kvintaga sozlanadi. Dutorlar oilasiga dator prima, dator alt, dator tenor, dator bass va dator kontrabassar kiradi. Dutor prima cholg‘usida ko‘pinchi chet el kompazitorlarining kuylari, texnik kuylar ijro etiladi. Dutor alt cholg‘usida yirik shakldagi kuylar, pyesalar ijro etiladi. Dutor tenor cholg‘usida esa o‘zbekcha kuylar ijro etiladi. Bolalarga birinchi darsda shular tog‘risida qisqacha ma’lumot berib o‘tamiz. Keyinchalik notalar, kalitlar, nota cho‘zimplari, o‘lchovlar va shtrixlar to‘g‘risida ma’lumot berib o‘tamiz. Dutor cholg‘usini o‘rgatishda birinchi navbatda

² G. SHaripova, G. Najmetdinov, Z. Xodjayeva, Musiqa o‘qitish metodikasi va maktab repertuari: darslik. A.: 2020, 7-8-bet.



o'tirish qonun qoidalari, dutor cholg'usini to'g'i ushlashni o'rgatamiz. Bunda dutor cholg'usining dastasi chap qo'limizda, kosa qismi esa o'ng qo'limizda bo'ladi. O'ng qo'limizning tirsak qismi dutor cholg'usining kosasi ustida turadi. Chap qo'limiz bilan dastasini tutamiz. Bunda agar chap qo'limiz baland bo'lib ketsa gavgamiz qiyshayib qoladi. Agar past bo'lib ketsa yelkamiz og'rib qoladi. Shuning uchun yelkamiz balandligidan tutib turganimiz maqul hisoblanadi. O'tirishda stulning chap yarim qismiga joylashgan holda o'ng oyog'imiz biroz oldinroq tarzda joylashadi. O'tirish qoidalarini o'rganib bo'lganimizdan so'ng oddiy zarblarda mashqlar va gamma chalishni boshlaymiz. Birdaniga kuyga o'tishimiz xato bo'ladi. Chunki hali qo'llarimiz moslashmagan bo'kadi. Shu sababdan birinchi oddiy mashqlar, gammalar keyin etyudlarva shu tariqa kichik kuylarga o'tishni boshlaymiz. Har bir cholg'uni ijro etishimizdan oldin qancha ko'p mashqlar, gammalar va etyudlar ustida ishlasak shuncha ko'p qo'limiz yumshaydi va shu tariqa mahoratimiz oshib boradi. Musiqa maktablari tahsil olayotgan bolalarga ko'proq rag'batlar, og'zaki va o'yin tarzda o'tgazilgan darslar o'z samarasini ko'rsatadi. Ritmlarni va eshitish qobiliyatini shakllantirish ustida ham alohida vaqt ajratishim kerak. Biror bir kuyni o'rganishidan oldin kuy haqida, bastakori haqida, o'lchovi, dinamik belgilari va ritmi haqida ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Bolalarni ko'proq sahnaga chiqarish ham o'ziga bo'lgan ishonchi va mahoratini oshirishda yordam beradi. Sahnaga chiqishning ham tartiblari mavjud. Birinchi navbatda dutor cholg'usini kosasiga yaqin qismidan tutgan holda o'ng qo'limizga olamiz. Sahnaga chiqib tazim qilamiz. Tazim qilish sahnaga hurmatni va tomoshabinlarga salom berishni anglatadi. Tazim qilishda ham ortiqcha egilmagan holda boshimiz biroz egiladi. Tazim qilib stulning orqasidan o'ng tomonidan o'tib o'zimizga qulay tarzda joylashamiz. O'tirganimizdan kuyni ijro etishga shoshilmaymiz. Avvola bir marta chuqur nafas olib keyin kuyimizni boshlaymiz. Shu tariqa kuyni ijro etib tugagandan so'ng o'rnimizdan turib yana bir bor tazim qilamiz va stulning chap tomonidan chiqib ketamiz.

Xulosa



Xulosa qilib aytganda, dutor cholg'usini o'rgatish jarayoni puxta metodik yondashuvni, izchillikni va pedagogik mahoratni talab etadi. O'quvchilarga eng avvalo to'g'ri o'tirish, cholg'uni to'g'ri ushlab hamda qo'l harakatlarini erkin va tabiiy bajarish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Noto'g'ri holatda mashq qilish ijro sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga, jismoniy noqulayliklarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Dars jarayonida oddiy mashqlar, gammalar va etyudlardan boshlab, asta-sekin murakkab kuy va asarlarga o'tish o'quvchilarning texnik hamda badiiy ijrochilik mahoratini oshiradi. Shu bilan birga, ritmni his etish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va sahna madaniyatini shakllantirish ham ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Musiqa ta'limida og'zaki, ko'rgazmali, amaliy va interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va bilimlarni mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi. Har bir o'quvchining yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda darsni tashkil etish esa ta'lim samaradorligini yanada kuchaytiradi. Shunday qilib, dutor cholg'usini o'qitish nafaqat ijrochilik ko'nikmalarini shakllantiradi, balki yosh avlodning musiqiy didi, estetik tafakkuri va milliy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalashda ham muhim o'rin tutadi. Mazkur metodik yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni kelajakda yetuk va mahoratli ijrochilarni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. To'xtasinov M. — Dutor ijrochiligi asoslari. Toshkent: San'at, 2008.
2. G. SHaripova, G'. Najmetdinov, Z. Xodjayeva, Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari: darslik. Andijon 2020
3. Rajabov I. — O'zbek xalq musiqa tarixi. Toshkent: O'zbekiston, 2005.
4. Xasanov A. — Cholg'u ijrochiligi metodikasi. Toshkent: Mumtoz so'z, 2016.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi — Musiqa fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent, 2020.
6. Jabborov A. — O'zbek xalq musiqa san'ati tarixi. Toshkent: O'qituvchi, 1996.
7. Fitrat A. — O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent: Fan, 1993.
8. Matyoqubov O. — Maqom asoslari. Toshkent: Fan, 2004.